



XALQ OG'ZAKI IJODIDA USTA –HUNARMANDLARNING O'RNI

Akbar Malikov

Respublika baxshichilik san'ati markazi xodimi

Kalit so'zlar: Usta, xalq hunarmandchiligi, cholg'u asbobi, baxshichilik, doston, usta

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining asosiy qismi bo'lgan baxshichilik san'ati va bu san'atda ishlatiladigan cholg'u asboblari va ularni yasovchi usta-hunarmandlarning faoliyati haqida fikr yuritilgan.

O'tmishda baxshi xalqona usullarda bilan bemorni davlovchi tabib, ayrim hududlarda ustoz ma'nolarini anglatgan.

Olimlarning e'tirof etishicha, "baxshi" so'zi *ustoz, ma'rifatchi* degan ma'nolarni anglatadi. Mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiyning "Munshaot" asarida bu so'z kotib, mirzo ma'nolarida qo'llanilgan. O'zbeklarda baxshi deb atalgan xalq ijodkorlari boshqa turkiy xalqlarda ham mavjud bo'lib, qoraqalpoqlarda jirov, qozoqlarda oqin, qirg'izlarda manaschi, mo'g'ullarda to'lchi, o'g'uzlarda uzan deyiladi.

Ma'naviyat o'tmish zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rnini, el - yurtga, vatanga, insonlarga ularga bo'lgan o'zaro munosabatini, asosiy omili hisoblanadi. Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabatda keskin ijobiy o'zgarish yasadi. Xalq og'zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy boyligi – pand, o'g'itlari, el-yurt qadrini e'zozlash, millatimiz g'ururini himoya qilishdek oliy tuyg'ular bilan bog'lanadi. Haqiqatan ham, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, avvalo, milliy qadriyatlarga sadoqat mezonini bilan o'lchanadi. Zero o'z qadrini bilmagan farzand o'zganing qadriga yetmaydi. Xalqimiz og'zaki ijodidagi asarlarda esa aynan ana shu g'oya o'z ifodasini topgan. Xalqimizning haqiqiy farzandlari sa'y-harakati bilan "Xalq og'zaki ijodi" turkumida "Alpomish" dostoni, Ergash



Jumanbulbul, Fozil shoir, Po‘lkan, Islom shoir, Bola baxshi ijro etgan epos namunalari, xalq dostonlari, xalq qo‘shiq-lari, ertaklari, askiya, latifa, topishmoqlarning nashr qilinishi nur ustiga nur bo‘lib, ayni kunlarda ham, baxshilar yonib–kuylab doston, terma kabilarni ijro etar ekan, baxshichilik asboblari yasovchi usta–hunarmandlar cholg‘u asbobini yasash mashaqqat - qiyinchiliklarga bas kelib cholg‘ularni yasar ekanlar, ular xalq oldida o‘zlarini burchlarini bajarishni lozim bilib, yosh avlodning ma’naviy dunyoqarashlarini boyitib borish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishishi maqsadida tinimsiz mehnat qilib kelishayotganliklarini alohida aytib o‘tish kerak. **Baxshi** – so‘zi lug‘atlarda turkiy so‘z bo‘lib, murabbiy va muallim ma’nolarini anglatadi, umuman, tarbiyachi, yetakchi, yo‘lboshchi kabi talqinlar ham, tarbiyalanuvchi baxshi nomini olgan va mustaqil faoliyat boshlagan soz ijrochisi, voqea rivojini she’rga joylab, so‘ng uni kuyga solib, do‘mbirasidan yangrayotgan ohang, baxshining ohangrabo ovozi, jo‘shqinlik ila berilib doston ijro etganida, tinglovchi qalbi torini beixtiyor chertib o‘tadi, hayot chig‘iriqlarini yengib o‘tishda doston, ertak eng yaqindo‘st, beminnat maslahatchi, maslakdoshdir.

Yurtimizda doston kuylash an’anasi qadimda uch yo‘nalishda rivojlangan:

Birinchi yo‘nalish — Bulung‘ur, Narpay, Nurota, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqay dostonchilik maktablarida do‘mbira chertib yakka holda, bo‘g‘iz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchi yo‘nalish — Xorazmda tor, dutor, g‘ijjak, garmon, bulamon, qo‘shnay, doira jo‘rligida ba‘zan yakka, ba‘zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchi yo‘nalish — Farg‘ona vodiysida dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan. Albatta biz dostonlarning shoirlar hamda baxshilar tomonidan og‘zaki shaklda kuylab kelingan ikki xil turi bilan tanishmiz. Baxshilar tomonidan kuylangan dostonlarda ham nasr, ham kuyga solib aytiladigan she’riy misralardan iborat bo‘lgan, baxshi doston parchalarni bir zumda to‘qib ketadigan shoir, dostondagi nasriy parchalarni yoddan o‘qiyotganda badiiy so‘z ustasidir (baxshilar orasida tez-tez savol – javob tarzida aytishuvlar amalda ijro etilib, bu xildagi tortishuv – musobaqalashib kuylangan terma, aytimlar xalqni yanada qiziqtirib, zavqlantirgan, baxshilarning tezda topqirlik bilan javoban qoyillatib kuylashlari xalq orasida ko‘p yillar bu



holatlarni xotirlab eslab yurganlar). Baxshilar tomonidan ijrochilik yoʻnalishi baxshichilik sanʼati deyiladi. Xalq – omma orasida, “yaratgandan yuqtirgan” degan iborani koʻp marotaba eshitganmiz, bu ibora aynan soz, cholgʻu asboblari yasovchi usta – hunarmandlarga ham mos boʻlib, xalqqa manzur boʻladigan cholgʻu asboblari yasash jarayonidagi nihoyatda mashaqqatli mehnatiga qaramasdan usta hunarmandlar oʻz ishini sidqidildan avloddan – avlodga oʻz kasblariga fidoyi qolgan xolda asbob yasashda davom etib kelmoqdalar. Tarbiyachi, oʻqituvchi, shifokor va koʻplab xalq farovonligi yoʻlida beminnat xizmat qilib kelayotgan soha vakillari qatoriga hech ikkilanmasdan cholgʻu asbobi yasovchi usta – hunarmandlarni ham kiritsak boʻladi, chunki cholgʻu asbobi yasash uchun avvalo xomashyoni oʻzini tayyorlashning oʻzigagina 2 yil vaqt ketishini, Oʻtgan asrgacha bugungidek matbuot, oʻquv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televideniye, internet kabi taʼlim, yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar boʻlmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq ogʻzaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Bu yoʻlda hamma birdek faoliyat yuritgan, boshqa soha vakillarini ham taʼkidlash lozim, masalan: doʻppidoʻz doʻppi tiksa, temirchi temirchiligi va kabilar orqali yosh avlodni baxoliqudrat oʻz kasbkori orqali tarbiyalashgan, kasb–hunari sirlari bilan oʻrtoqlashib borganlar. Natijada, xalq ogʻzaki ijodi, xalq kasb-hunarmandchiligi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan. Bugungi kunda ham eʼtiqodi, kasb – hunariga sodiq qolgan holda, xududlarda faoliyat yuritishda davom ettirib kelishmoqda.

Baxshichilik musiqa cholgʻu asbobi yasovchi usta – hunarmandlar; Joʻrayev Togʻaynazar Eshboyevich, Shaydilov Normurod, Jabborov Mustafakul Xusan oʻgʻli, Daniyev Elmurat, Jurayev Axmat Shaturayevich, Ashurov Abdurashid Abdullayevichlarning faoliyatini alohida eʼtirof etish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini oʻtkazish toʻgʻrisida”gi prizident qarori // Xalq soʻzi. – Toshkent, 2018 yil 2 noyabr.
2. Abdullayev H. Soʻz sehri. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2005.–B. 4-11.
- Matyoqubov B. Doston navolari. Toshkent, 2009 y.
3. Matyoqubov B. Doston ijrochilarini oʻqitish uslubi. Toshkent, 2021 y.



4. Matyoqubov B. Dostonlarni musiqiy xususiyatlarini o‘rganish. I- kitob Toshkent, 2024 y.
5. Matyoqubov B. Dostonlarni musiqiy xususiyatlarini o‘rganish. II- kitob Toshkent, 2024 y.